

SO'Z TURKUMLARIGA AJRATISH MASALASI

Bobojonova Sevara Rafiqovna

*Xorazm Viloyati Yangiariq tumanidagi 18-son umumiy o'rta ta'lim maktabining
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi*

Anatatsiya: *Ushbu maqolada sôz turkumlari haqida tushunchalar ,sôz turkumlarini qadimdan kelib chiqishi so'zning leksik grammatik ma'nosi;so'zning sintaktik vazifalar, so'zning grammatik shakli; so'z yasovchi morfemalari; so'zning distribusiyasidan foydalanish usullarni ôzlashturish haqida fikr yuritiladi.*

Аннотация: *В данной статье понятия группы слов, древнее происхождение групп слов, лексико-грамматическое значение слова, синтаксические функции слова, грамматическая форма слова; словообразовательные морфемы; думается об овладении приемами употребления*

Annotation: *In this article, the concepts of a group of words, the ancient origin of groups of words, the lexical and grammatical meaning of a word, the syntactic functions of a word, the grammatical form of a word;*

derivational morphemes; thinking about mastering the techniques of using

Kalit sôzlar: *Sôz yasovchi, tiplar ,sintaktik, morfologik, strukturalizm davri;*

Kirish qismi :

So'z turkumlari — tildagi so'zlarning ularda umumiy kategorial ma'noning (maye. otlarda predmetlik, fe'llarda harakatholat), grammatik kategoriyalar yagona tizimining , o'ziga xos so'z o'zgarish, shakl va so'z yasalish tiplarining , sintaktik vazifalar umumiylikining mavjudligiga qarab ajratiladigan guruxlari (Ba'zi adabiyotlarda "so'zlarning leksikgrammatik kategoriyalari" deb ham ataladi). Demak, so'zlarni guruhlarga, turkumlarga ajratishda asosan ularning sintaktik, morfologik va ma'noviy (semantik) xususiyatlarining o'xshashligi hisobga olinadi.

Asosiy qismi :

Har bir so'z turkumi o'ziga xos grammatik kategoriyalar to'plami bilan ajralib turadi. Bu kategoriyalar (mas, otlardagi kelishik, egalik, son; sifatlardagi daraja; fe'llardagi shaxsson, mayl, nisbat va boshqalar) har bir So'z turkumlari dagi aksariyat sôzlarga tegishli bôladiki, bu narsa sôzlarni turkumlarga ajratishning morfologik mezoni sanaladi.Hozirgi maktab grammatikalaridagi St. tizimi, ya'ni sôzlarni turkumlariga ajratish qadimgi davrlarga borib taqaladi. Mil. av. 4-asrda Aristotel Sintaksisni 7 ga, mil. av. 5-asrda hind tilshunoslari Yaska, Panini 4 ga



bo'lganlar. Keyinroq, mil. av. 2—1-asrlarda aleksandriyalik filologlar Frakiyalik Dionisiy, Apolloniy Diskol, rimlik Varronlar aralash morfologik, semantik va sintaktik asoslarda 8 ga (otism, fe'l, ravish, sifatdosh, artikl, olmosh, kumakchi, bog'lovchi) bo'lganlar. Bunda ismlar o'z navbatida ot, sifat va son guruhlarini qamrab olgan. So'z turkumlarining bu tizimi ma'lum darajada arab grammatik an'alariga ham ta'sir ko'rsatgan: arablar ham fe'ldan boshqa mustaqil suzlarni "ism" termini bilan ataydilar. Keyingi davrlarda (ôrta asrlar va 19—20-asrlarda) yevropa va rus tilshunosligida bu borada bir qancha tasniflar amalga oshirilgan bulsada, ular ko'pincha aleksandriyaliklar tasnifiga tayangan holda bajarilgan. Turli tillarda St. soni va ayrim turkumlarning hajmi turlichadir. Mas, St. soni hozirgi rus tilida ko'pincha 10 ta deb, o'zbek tilida esa 10—12 ta deb (turli darsliklar) kursatiladi. Bular 6 ta mustaqil (ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'l), 3 ta yordamchi (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama) va 3 ta alohida (undovlar, taklid so'zlar, modal sôzlar) St. dir. St. sonining barkarorlashmaganligi kelgusida bu sohada yangi izlanishlar olib borish zarurligini kursatadi. Tilshunos olim S.Usmonov so'zga shunday ta'rif beradi: «So'z kollektiv a'zolari tomonidan bir xilda talaffuz qilinib, bir xilda idrok qilinadigan hamda biron predmet, hodisani bildiradigan yo ular haqidagi tovush birikmasi sifatida shakllangan simvoldir²⁷. Prof. Sh.Rahmatullayev so'z haqida shunday deydi: «So'z o'ta murakkab hodisa sifatida talqin qilinib, ayni vaqtda ham til birligi, ham nutq birligi bo'lishi ta'kidlanadi. Asli til birligi bilan nutq birligining teng kelib qolishi yordamchilarda, o'zgarmaydigan turkumlarda voqe bo'ladi. So'zlarni turkumlarga ajratuvchi mezonlar, belgilar to'g'risida ko'p bosh qotirilgan. Bu muammoning yechilish tarixi hozirgi kunda uch asosiy bosqichdan iborat:

- strukturalizm gacha bo'lgan davr;
- strukturalizm davri;
- strukturalizmdan keyingi, ya'ni hozirgi davrga ajratiladi.

Strukturalizm gacha bo'lgan davrda so'zlarni turkumlarga ajratishda asosan uch o'lchov: so'zlarning leksik-grammatik ma'nosidan, so'zlarning morfologik belgilari, ya'ni so'zning grammatik formasidan; so'zlarning gapdagi sintaktik vazifasidan foydalanilgan. Strukturalizmlar so'zlarni turkumlarga ajratishda faqat birgina, ya'ni so'zlarning distribusiyasidan foydalanilgan. So'zlarning distribusiyasi deganda bir so'zning gap va o'ng tomonidan aloqaga kirishishi mumkin bo'lgan hamma imkoniyatlari nazarda tutiladi. So'zlarni turkumlarga ajratishda, asosan, quyidagi belgilar asos qilib olinganligini ko'ramiz:

- so'zning leksik grammatik ma'nosi;
- so'zning grammatik shakli;
- so'zning sintaktik vazifalari;



- so‘z yasovchi morfemalari;
- so‘zning distribusiyasidan foydalaniladi.

Xulosa qismi:

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki: so‘z turkumlarining gapda bajaradigan vazifasi turlicha. Ot gaplarda hamma vazifada kelishi mumkin, lekin sifatlarning sintaktik vazifalari chegaralangan. Shuni ham aytish kerakki, so‘z turkumlarining gapda bajaradigan vazifasi tillarda bir xil emas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O‘zbek tili grammatikasi [2 j.li], 1j., T., 1975; Hozirgi o‘zbek adabiy tili, 1qism, T., 1980;
- 2 . Revzi na O. G., Revzin I. I., Lingvotipologicheskiye issledovaniya, vo‘p. 2, ch. 2, M., 1975.
- 3.Mirzayev, Ne‘mat Mahkamov.Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil
- 4.H.Jamolxonov. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent, 2005.
5. U.Tursunov va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. Toshkent. 1992.
6. G‘.Abdurahmonov, S.Mamajonov. O‘zbek tili va adabiyoti. Toshkent, 1995.
- 7.S.Otamirzaeva, M.Yusupova. O‘zbek tili. Toshkent, 2004.
8. Sh.Ranmatullayev. Hozirgi adabiy o‘zbek tili. Toshkent, 2007.

